

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: (374) 223-57-82, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i: Ashurov Behzodbek Orifjon O'g'li

Sana: 22-04-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

237232 - SONLI

Obyekt nomi: Samarqand sh., M. Ulug'bek ko'chasi, 105-uyda joylashgan "UMS" MChJ ninig Samarqanddagi markaziy ofis binosi yerto'lasini ta'mirlash, ventilyatsiya tizimlarini o'rnatish va yomg'ir suvini to'plash uchun rezervuarni o'rnatish va sovuq suv quvurlarini yotqizish.	
Buyurtmachi:	UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS MCHJ
Bosh loyihachi:	"UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	tanlov savdolari asosida aniqlanadi
Qurilish turi:	Joriy ta'mirlash
Murojaat raqami:	054267

1. Loyihalash uchun asos.

- 1.1. UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS MCHJ boshqaruv direktori tomonidan tasdiqlangan 2025-yilgi Pratakol.
- 1.2. UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS MCHJ boshqaruv direktori tomonidan tasdiqlangan 2025-yilgi loyihalash topshirig'i.
- 1.3. UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS MCHJ Boshqaruv rahbari tomonidan tasdiqlangan UMS Samarqand filiali boshlig'i va EZSiN bo'limi rahbari tomonidan kelishilgan 28.01.2025-yilgi nuqsonlar dalolatnomasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

- 2.1. Lokal resurs xujjatlar.
- 2.2. Tushuntirish xatlari.
- 2.3. Yig'ma lokal xujjatlar.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

- 3.1. Peshxisob xisoblari bo'yicha: « Samarqand sh., M. Ulug'bek ko'chasi, 105-uyda joylashgan "UMS" MChJ ninig Samarqanddagi markaziy ofis binosi yerto'lasini ta'mirlash, ventilyatsiya

tizimlarini o'rnatish va yomg'ir suvini to'plash uchun rezervuarni o'rnatish va sovuq suv quvurlarini yotqizish » obyektni nuqsonlar dalolatnomasida quydagi ishlarni bajarish ko'zda tutilgan:

Samarqand. Yangi ofis. (Rezervuar.)

Asfalt qoplamani qirqish. Qo'l kuchi bilan yer kavlash. PVX quvurlarni montaj qilish. Qo'l kuchi bilan qayta ko'mish. Chaqiqtoqlik asos. Asfalt qoplama yotqizish. PVX fason qismlarni o'rnatish. Suv ketkazish quvurlari va tarnovlarni o'rnatish. Tarnov otvodlarini maxkamlash.

6m³ hajmli suv rezervuari. Ekskavator bilan yer kavlash. Asosga shag'al yotqizish. Suyuq bitum quyish. Poydevor plitalarini o'rnatish. Qo'l kuchi bilan qayta ko'mish. Beton devorlar quyish. Syementli qorishma bilan suvash. Vertikal gidroizolyasiya ishlari. Syementli qorishma bilan tekislash. Temir lyuklarni o'rnatish. Nasoslarni o'rnatish. PVX quvur yotqizish. PVX fason qismlarni o'rnatish. Elektr simlarini montaj qilish. Temir quvurlar, gofra shlang, avtomatlarni o'rnatish.

Samarqand. Yangi ofis. (Podval.)

Yerto'la. Eski suvoqlarni ko'chirish. Devorlarni gipsokarton bilan qoplash. Suvoqlarni ta'mirlash. Devorda teshiklar ochish. Qiyaliklarni suvash. Shpaklevka qilish. Suvemulsiya bo'yoqlari bilan bo'yash. Quyma (nalivnoy) pollar. Pol va plintuslarni moyli bo'yoq bilan bo'yash. Yog'och va temir eshiklarni bo'yash. Teir quvurlar va shvellerli konstruksiyalarni bo'yash. Eski chiroqlarni chiqarib yangi LED chiroqlar o'rnatish. Elektr koroblar, viklyuchatellar, simlarni montaj qilish. Chiqindilarni chiqarib tashlash. Temir quvurlar va zadvijskalarni almashtirish. PVX quvurlar va fason qismlarni o'rnatish. Suv schetchiklarini o'rnatish. Cho'yan batareyalar, fason qimlarini demontaj qilish. PVX quvurlar, fason qimlarni, alyumin radiatorlar, gazli qozonlarni montaj qilish. Gaz filtrlari, manometrlar, sirkulyasiya nasoslarini o'rnatish.

Bostirma, xudud maydonlari. Tom profnastil yopmalari, suv ketkazish quvurlarini demontaj qilish. Tomga profnastil yotqizish. Asfalt yotqizish ishlari.

Arxiv. Elektr qutilari, simlar, LED chiroqlar, viklyuchatellarni o'rnatish. Temir eshiklarni bo'yash. Syement pollarni ta'mirlash.

Chiqindi konteyneri bostirmasi. Temir ustunlarni betonlash. Profilli quvurlar bilan bostirma qilish. Eshik zaxira qismlarini o'rnatish. Profnastil yotqizish. Moyli bo'yoq bilan bo'yash.

Samarqand. Yangi ofis. (Vodoprovod.)

Asfalt qoplamani qirqish. Qo'l kuchi bilan yer kavlash. PVX ichki va tashqi oqova suv quvurlarni montaj qilish. Qo'l kuchi bilan qayta ko'mish. Chaqiqtoqlik asos. Asfalt qoplama yotqizish. PVX fason qismlarni o'rnatish. PVX sovuq va issiq suv quvurlarni montaj qilish. PVX ventillari, fason qismlarni o'rnatish. Elektr suv isitgichlarni montaj qilish. Elektr simlari, avtomat va rozetkalarni o'rnatish. Devorlarda teshik ochish. Suvemulsiya bo'yoqlari bilan bo'yash.

Samarqand. Yangi ofis. (Ventilyasiya.)

Devorlarda teshik ochish. Havo quvurlarini montaj qilish. Havo quvurlarini izolyasiya qilish. Fason qismlarini o'rnatish. Havo quvurlarini moyli bo'yoq bilan bo'yash. Ankerlar uchun teshik ochish. Kronshteyn va ankerlarni o'rnatish. Rekuperatorni o'rnatish. Alyumin panjaralarni o'rnatish. "GRILYATO" tipli shiftlarni ko'chirib olish va montaj qilish. Elektr qutilari, simlar, LED chiroqlar, viklyuchatellarni o'rnatish. Pult uchun "YUTUB" kabellarini yotqizish. Drenaj shlanglarini montaj qilish.

3.2. Xisob kitob uchun "Resurslar metodi"dan foydalanildi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Buyurtmachi UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS MCHJ direktori tomonidan 2025 yilda tasdiqlangan loyihalash topshirig'i va nuqsonlar dalolatnomasiga asosan amalga oshiriladi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Loyiha UMS Samarqand filiali boshlig'i va UMS EZSiN bo'limi rahbari bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **528 234 865** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

18 943 387 so'mga kamaytirilib, **509 291 478** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **387 360 734** so'm

Asbob-uskunalar: **67 363 800** so'm

QQS: **54 566 944** so'm

6.1. Tushuntirish xatining tartibga keltirilishi.

6.2. Ish xaqi xarajatlari Vaqtinchalik tartib bilan kelishilgan xolda tartib asosida aniqlangan:

- Quruvchilarning o'rtacha oylik ish xaqi xisobotlar asosida keltirilgan.

- Ijtimoiy sug'urtaga xisoblanish 2024 yil ko'rsatkichlari asosida qabul qilingan.

6.3. Pudratchi xarajatlari SHNK-4.01.16-09ga asosan keltirilgan.

6.4. Buyurtmachi xarajatlari xisobga olinmagan.

6.5. Tavakkalchilik ko'effitsienti xisobga olinmagan.

6.6. Mashina va maxsulotlar qiymati tegishli me'yoriy xujjatlar asosida aniqlik kiritilgan.

6.7. Ijtimoiy sug'urtaga o'tkazmalarni aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.12.2014 yildagi PFP-2270 sonli Farmoniga kiritilgan №25 sonli ilovadan foydalanish zarur.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.9. Taqdim etilgan 12% QQS bilan hisoblangan umumiy miqdori 528 234 865 so'mni tashkil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so'ng 18 943 387 so'm qurilish materiallar narxlar, transport xarajatlari va lakal soatlar hisobiga kamaygan.

7. Xulosalar.

7.1. Peshxisob xisoblari bo'yicha: « Samarqand sh., M. Ulug'bek ko'chasi, 105-uyda joylashgan "UMS" MChJ ning Samarqanddagi markaziy ofis binosi yerto'lasini ta'mirlash, ventilyatsiya tizimlarini o'rnatish va yomg'ir suvini to'plash uchun rezervuarni o'rnatish va sovuq suv quvurlarini yotqizish », ob'ektini quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'ra keyingi kelishuv va tender savdolarini o'tkazish uchun tavsiya etiladi:

Me'yoriy mehnat sarfi - 3041,410 odam/soat.

Joriy narxdagi tavsiyaviy (boshlang'ich)

miqdori 12% QQS bilan - 509 291 478 so'm.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchub ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang'ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNK 1.03.06-13da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida

taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi».

7.4. Vazirlar mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579 qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo'yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Bosh ekspert: Asqarov Otabek Fazlidinovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Raxmatullin Dil'shad Xamzayevich